

SUV EROZIYASIGA QARSHI TUPROQQA ASOSIY ISHLOV BERISH TEKNOLOGIYA TAHLILI

Rashidov N.SH.

QarMII “QXM va S” kafedrasi dotsenti, t.f.f.d.,

E-mail: nurbek.rashidov91@mail.ru

ANNOTATSIYA

Maqolada nishablik dalalarda suv eroziya jarayoniga ta’sir etuvchi omillar, ularning jarayonga ta’siri va ilgari olib borilgan ishlarning tahlili keltirilgin.

Kalit so‘zlar: tuproq, suv eroziya, texnologiya, lalmikor yerlar, nishablik, ishlov berish

АННОТАЦИЯ

В статье представлены факторы, влияющие на процесс водной эрозии на склоновых полях, их влияние на процесс и анализ предыдущих работ.

ABSTRACT


The article presents factors influencing the process of water erosion on slope fields, their influence on the process and analysis of previous works.

Suv eroziyasini yuzaga kelishining sababi asosan yomg‘ir suvlari bo‘lib, uning ta’sirida haydov qatlamini yuvilishi yuzaga keladi va tuproqning hosildorligi yomonlashadi. Suv eroziyasiga chalingan tuproqlarga asosiy ishlov berishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: tuproqning suv o‘tkazish va shimish qobiliyatlarini yaxshilash uchun uni mayda kesakli yumshatilgan struktura holatiga keltirish; qiyalikning yuzasida suvni ushlaydigan mikrorelyefni yuzaga keltirish; suvni yuza oqimlari ta’sirida tuproqni yuvilishini kamaytirish; haydov qatlamini chuqurlashtirish; plug tovonini buzish.


Suv eroziyasiga qarshi usullar shartli ravishda ikkita guruhga bo‘linadi: tuproqning suv o‘tkazish va filtratsiya (shimish) qobiliyatlarini yaxshilaydigan usullar; suvni oqishini va tuproqni yuvilishini bartaraf qilish uchun dala yuzasida mikrorelyef hosil qiladigan usullar. Suvni o‘tkazish va shimish qobiliyatlarini yaxshilaydigan eroziyaga qarshi tuproqqa ishlov berish usullariga quyidagilar kiradi: qiyalikka ko‘ndalang shudgorlash; chuquryumshatkichli pluglar yoki kesik ag‘dargichlar bilan shudgorlash; chuqur ag‘dargichsiz ishlov berish; tirqish ochish; tuynuk ochish.

Suvni ushlaydigan mikrorelyeflarni quyidagi turlari mavjud [1]: ariqlar, uyumlar, mikrolimanlar, uzlukli ariqlar, chuqurchalar. Olimlar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra shudgorlash bilan birga chuqurchalar, mikrolimanlar va uzlukli ariqlar hosil qilish suvni oqishini 2-3 marta, tuproqda namni 20-30 mm ga va hosildorlikni 0,2-0,3 t/ga ga oshiradi [2].

Egat tubida pog'onasimon profil hosil qiladigan pog'onasimon har chuqurlikda shudgorlash (1-rasm) shudgor yuzasidagi va tuproq ichidagi suv oqimlarini yo'qotadi. Bunday shudgorlash ikkinchi va to'rtinchi korpuslari 20-22 sm chuqurlikda, birinchi va uchinchi korpuslari 30-34 sm da shudgorlaydigan to'rt korpusli plug (2-rasm) bilan amalgalashadi. Ushbu usulda shudgorlash natijasida shudgor yuzasida ariqlar va egat tubida pog'onasimon profil hosil bo'ladi. Tadqiqotlarga ko'ra, pog'onasimon har chuqurlikda shudgorlash 1 metrlik qatlamda suv zahirasini 90-330 m³/ga va hosildorlikni 0,17-0,43 t/ga oshiradi [2].




1-рasm. Pog'onasimon har chuqurlikda shudgorlash



2-расм. Погонасимон шудгорлаш учун тўрт корпусли плуг
1, 2, 3 ва 4 - корпузлар

Suv eroziyasini bartaraf qilish uchun dala yuzasida nanorelyefni yuzaga keltirish uchun chuqurchalar hosil qilish, maxsus chuqurchalar hosil qilgichlar bilan amalgalashadi[3]. Buning uchun o'qda ekssentrik o'rnatilgan disksimon luchshilniklar

qo‘llaniladi (3a-rasm). Chuqurchalar uzunligi 110-120 sm, kengligi 35-50 sm, chuqurligi 12-15 sm. Hujum burchagi 30° bo‘lgan disklar bilan har bir gektarda hajmi $250 \text{ m}^3/\text{ga}$ bo‘lgan 13 minggacha chuqurchalar hosil qilinadi. Diskning ekssentrisiteti ye ga (3b-rasm) bog‘liq ravishda har xil shakldagi chuqurchalar shakllantiriladi (3v-rasm).



3-rasm. Disksimon chuqur hosil qilgich va diskning har xil ekssentrisitetlarida chuqurchalarni shakllantirish sxemalari

1-4 sferik disklar; e – ekssentrisite

O‘rkachli-pog‘onasimon shudgorlash pog‘onasimon shudgorlashning bir turi bo‘lib, unda shudgor yuzasida o‘rkachlar, shudgor tubida esa pog‘onalar hosil bo‘ladi. O‘rkachli-pog‘onasimon shudgorlash 8° gacha nishabli dalalarda suv eroziyasini bartaraf qiladi. Pog‘onasimon shudgorlashda oddiy plugdan foydalaniladi, bunda uning bitta korpusi 40-50 sm ga uzaytirilgan ag‘dargichga ega. Bu ag‘dargich haydov aggregatini har bir o‘tishida suv oqimiga qarshi o‘rkach hosil qiladi.

Bu borada olib borilgan ilmiy ishlar tahlilining ko‘rsatishicha, eroziyaga qarshi kompleks kurashda agrotexnik usullar katta ahamiyatga ega. Eroziyaga qarshi asosiy talab – dala yuzasi va egat tubini shunday hosil qilish kerakki, u shamol va suv eroziyasiga barqaror bo‘lsin va o‘simliklarni rivojlanishi va hosilni shakllanishi uchun sharoit yaratsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Географический атлас Узбекистана// Госкомземгеодезкадастр, –Ташкент, 2012, –С.130-131.
2. Maxsudov X.M. Эрозия почв аридной зоны Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – 168 с.
3. Захаров Н.Г. Защита почв от эрозии/ Учебно-методический комплекс. – Ульяновск: ГСХА, 2009. – С. 9-14.
4. Татаров Н.Т. Разработка и обоснование конструктивно-технологических параметров плуга-плоскореза для почвозащитной технологии обработки почвы// – Улан-Удэ, 2006. – 138 б.
5. А.С. 398183. Оборотный плуг для горизонтально-ступенчатой вспашки на склонах/ Карабанян К.Г., Александрян К.В., Гаспарян А.А., Геворкян С.М., Геворкян Л.А., Данилевич Г.И., Сынмеер Д.Я. и Сиденко Г.А. // Бюл.–1974. – №38.
6. Абрамов Л.П. Деградация и мелиорация почв/ Учеб.методическое-пособие для обучающихся. – Екатеринбург, 2016. – 36 стр.